

## **BOJXONA ORGANLARI FAOLIYATINING OSHKORALIGINI TA'MINLASHDA AXBOROT XIZMATINING O'RNI**

*Aslanova Firuza Baxshilloevna*

*O'zbekiston Axborot xizmati va PR yo'nalishi 2-kurs magistranti*

*firuzaslanova31@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bojxona sohasida amalga oshirilgan <https://www.instagram.com/reel/CkyDVA9DKob/?igshid=ZmRlMzRkMDU=> so'z yuritiladi. Shuningdek, raqamli bojxona tushunchasi va uning mohiyati, shuningdek, bojxona sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining bojxona ishiga bevosita samarali ta'siriga oid fikr va mulohazalar ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** bojxona, islohot, axborot xizmati, OAV, maqolalar, tahlil, raqamli bojxona.

*“Bojxona postlari davlatimiz yuzi, birinchi taassurot shu yerdan boshlanadi. Ular obod, aholi va tadbirkorlar uchun qulay bo'lishi kerak.”*

*Shavkat Mirziyoyev.*

Bojxona tizimi mamlakatimizni jahon iqtisodiyoti bilan bog'laydigan muhim bo'g'in. Bu tizim to'g'ri va ochiq-oshkora ishlamas, tadbirkorlik va investitsiyalarga to'siq bo'ladi. Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatining oshkoraligini ta'minlash, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari va keng jamoatchilikning bojxona organlarida amalga oshirilayotgan turli yo'nalishlardagi keng qamrovli islohotlarning borishi to'g'risida muntazam xabardor qilish bojxona tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu boradagi yangiliklardan fuqarolarimizni boxabar qilishdek mas'uliyatli vazifani bojxona qo'mitasi axborot xizmati va joylardagi bo'limlari xodimlari namunali bajarib kelmoqda. 2019-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Ommaviy axborot vositalari mustaqilligini ta'minlash hamda davlat organlari va tashkilotlari axborot xizmatlari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” qarori qabul qilinishi ushbu yo'nalishda yangi ishlarni boshlab berdi. Qarorda media makonda yuzaga kelayotgan hodisalarga tezkorlik bilan munosib

javob qaytarilmayotgani, islohotlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish bo'yicha sohada ishlarni sezilarli darajada oshirish zarurligi, davlat organlari va tashkilotlarining axborot xizmatlari, OAV faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni taqozo etayotgani ta'kidlandi<sup>1</sup>. Biroq bu bilan nafaqat OAV faoliyati uchun qulay sharoit yaratish, davlat va jamiyat o'rtasida muloqotni yo'lga qo'yish, aholiga islohotlar haqida tezkor, xolis va to'liq axborot yetkazish, balki davlat tashkilotlarining faoliyati shaffofligini oshirish, ularning jamoatchilik bilan hamkorlik aloqalari, axborot xizmatlari faoliyatining samaradorligini tubdan yaxshilashni ham ko'zlangan edi. Ushbu qaror matbuot xizmatlari sohasida katta burilish yasadi, deyish mumkin. Qaror bilan axborot xizmati rahbari bir vaqtning o'zida davlat organi rahbarining matbuot kotibi — axborot siyosati masalalari bo'yicha maslahatchisi maqomida bo'lishi hamda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi xulosasini inobatga olgan holda, lavozimga tayinlanishi belgilanib qo'ydi. Xolislikni ta'minlash maqsadida suhbatlarni yuqori bilim va salohiyatga ega mas'ul mutasaddilar, tajribali va o'z ishiga vijdonan yondashadigan soha mutaxassislaridan iborat hay'at olib boradigan bo'ldi. Natijada ushbu yo'nalishga salohiyatli kadrlar saralana boshlandi. Aytish mumkinki, jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini, mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarini bojxona organlari faoliyatiga dahldor ma'lumotlardan xabardor qilish bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi ko'p yillik tajribaga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1991-yil 25-oktyabrdagi farmoni asosida Davlat bojxona qo'mitasi tashkil topgan bo'lib, uning tarkibidan Ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi ya'ni Axborot xizmati (hozirda Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi deyiladi) ham o'rin olgan edi. Bo'limning Nizomi va xodimlarning lavozim yo'riqnomalari so'nggi bor 2018-yilda qayta ishlab chiqilib, tasdiqlangan<sup>2</sup>. Bo'limning ayni paytdagi Nizomi jamoatchilik vakillari va tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini bojxona organlari faoliyatining dolzarb jihatlarini, yagona bojxona siyosatini amalga oshirish masalalari, bojxona qoidalari, tartiblari, soha bo'yicha qabul qilinayotgan yangi me'yoriy hujjatlar, ulardagi o'zgarishlar, sohada ro'y berayotgan yangilanishlar haqida o'z vaqtida xabardor qilib borish, shu maqsadda jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ular bilan axborotlar almashish, ma'lumotlarni OAVda va Internet tarmog'ida yoritish, tashqi foydalanuvchilar uchun doimiy ravishda turli ma'lumotlar taqdim etishni tizimli ravishda yo'lga qo'yishga xizmat qilib kelmoqda. Bo'lim o'z faoliyatini samarali tashkil etishi uchun yetarli moddiy texnik baza bilan

---

<sup>1</sup> <https://daryo.uz/2021/06/27/>

<sup>2</sup> <https://customs.uz/oz/lists/view/258>

ta'minlangan. Shuningdek, televideniye uchun tayyor lavhalar tayyorlab berishni ta'minlovchi o'z tasvirga olish va montaj qilish texnikalariga ega. Bo'lim xodimlarining xizmat kompyuterlari yuqori tezlikdagi Internet tarmog'iga ulangan. O'ziga yuklatilgan vazifalarning ijrosini ta'minlash maqsadida tashkiliy va amaliy tadbirlarni o'tkazishda Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi hududiy bojxona boshqarmalari bilan hamkorlikda qo'mita rahbariyati tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida ishlar olib bormoqda. 2011-yilda Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bojxona boshqarmalarida, "Toshkent-Aero" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksida Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar guruhlari - Axborot xizmatlari tashkil etilgan. 2017-yilda Davlat bojxona qo'mitasining Axborot xizmati nufuzli "Oltin qalam" mukofotiga sazovor bo'lganligi uning faoliyati nechog'lik samarali tashkil etilganligini isbotlaydi. Yurtimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun mas'ul bo'lgan bojxona xizmati xodimlari faoliyati haqida ommaviy axborot vositalari orqali keng jamoatchilikka tezkor va ishonchli axborot yetkazib berish ahamiyati haqida so'z borar ekan, ma'lum bir keys orqali uning amaldagi isbotini tahlil qilsak. 2018 yilda Telegram tarmog'idagi "Jurnalizd", "Davletovuz" kabi axborot kanallari va boshqa ommaviy axborot vositalarida "Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash xalqni sog'ish hisobigami?" sarlavhali material e'lon qilindi. Unda chetda xarid qilingan va xalqaro pochta tizimlari orqali olib kelinayotgan tovarlarni olishda qator muammolarga duch kelinayotganligi qayd etilgan. bu esa ijtimoiy tarmoqlarda xalqaro pochta va kurerlik jo'natmalarini qabul qilayotgan jismoniy shaxslar uchun joriy qilingan tovarlarni bojsiz olib kirish me'yorlariga nisbatan turlicha qarashlar to'qnashuvini keltirib chiqardi. Jumladan, kimdir buni ma'muriy cheklov sifatida baholasa, kimdir mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun qabul qilingan chora sifatida ta'kidladi<sup>3</sup>. Bu vaziyatga Davlat Bojxona qo'mitasi Axborot xizmati munosabat bildirib, fuqarolarga joriy etilgan tartiblar ahamiyati haqida asoslangan ma'lumotlarni taqdim etdi. O'zbekiston Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga jismoniy shaxslar nomiga xalqaro pochta va kurerlik jo'natmalari orqali kelayotgan tovarlar nazoratini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida" qaroriga muvofiq, xalqaro pochta jo'natmalarini qabul qilayotgan jismoniy shaxslar \$100 teng bo'lgan qiymatdagi tovarlar uchun boj to'lovlarini to'lamaydilar. Shuningdek, jismoniy shaxslar har chorakda bir marotaba kurerlik jo'natmalari orqali \$1 000 qiymatiga teng bo'lgan tovarlarni bojsiz qabul qilib olishlari mumkin. Ammo belgilangan tartibga amal qilmay, qiymati \$100 yuqori bo'lgan tovarning narxini asossiz ravishda pasaytirib, \$49 qilib ko'rsatish orqali, telefonni bojsiz olib kirish me'yorlarini suiste'mol

---

<sup>3</sup> <https://www.spot.uz/oz/2018/09/11/customz/>

qilgan holda olib kirishga bo'lgan urinish sodir etayotgan fuqolar topiladi. Ushbu holatda bojxona xodimlari mazkur \$300 telefonning bojsiz olib kirishga ruxsat etilgan \$100 chegirib tashlab, qolgan \$200 uchun belgilangan tartibda davlat byudjetiga tegishli bojxona to'lovlarini undirishgan. "Aslida esa ushbu me'yorlar jismoniy shaxslarning manfaatlari har tomonlama inobatga olingan holda qabul qilingan deyishimiz mumkin. Chunki, jismoniy shaxsni har chorakda \$1000, yil davomida esa \$4000 teng tovarlarni o'z ehtiyoji uchun boj to'lamasdan olib kirishi yurtimizda yashayotgan har bir shaxsni chetdan sifatli va arzon tovar olishini to'liq kafolatlaydi, - deb izoh beradi Davlat Bojxona qo'mitasi matbuot xizmati<sup>4</sup>. Bu misol orqali Axborot xizmati bir yoqlama fikrdayotgan insonlarga davlat hech bir qoidani shunchaki ishlab chiqmasligini, bunga amal qilishni istamay qing'ir yo'llarni ishga solib bojxonachilarni aldashga urinayotgan odamlar qonun oldida teng javob berishini ta'minlash bojxonachilar oldida turgan mas'uliyatli vazifa ekanligiga tushuncha berib o'tdi. Bu kichik holatga bir munosabat. Endi tasavvur qiling, har yili bojxona tizmini isloh qilish yo'lida qanchadan-qancha o'zgarishlar, yangiliklar sodir bo'lyapti, yangi tartiblar joriy etilmoqda. Birgina, 2019-yilda bojxona ma'muriyatchiligi isloh qilinib, bojxona postlarida soddalashtirilgan yo'laklar joriy etildi. Bugun yo'lovchilarning 95 foiz va yuklarning 75 foizi shular orqali o'tmoqda. Ilgari 12 ta idoradan olingan 60 turdagi ruxsatnomalar "yagona darcha" orqali elektron shaklga o'tkazildi. Bularning natijasida bojxonada yuklarni rasmiylashtirish vaqti 10 barobargacha qisqardi. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida eksport hajmini 30 milliard dollarga, xorijiy turistlar sonini 7 millionga yetkazish maqsadi belgilangan. Bu bojxona sohasiga alohida mas'uliyat yuklaydi. Joriy yil 1 maydan boshlab, yuk deklaratsiyasini rasmiylashtirish postlardan chiqariladi va tadbirkor bilan bevosita muloqotsiz, masofaviy amalga oshiriladi. 1 iyuldan tovarlar kodi va qiymatini belgilash, bojxona ko'rigini o'tkazish, imtiyozli deklaratsiya rasmiylashtirishda korrupsion xavflar avtomatlashgan tizim orqali aniqlanadi. 1 sentyabrdan boshlab, barcha elektron bojxona xizmatlari "yagona darcha" tizimi orqali ko'rsatiladi. Yil yakuniga qadar bojxona ko'rigi jarayonlarini to'liq qamrab olgan elektron tizim ishga tushiriladi. Yig'ilishda kontrabandaga qarshi kurashish natijalari ham tahlil qilindi. Xususan, joriy yilning o'tgan davrida 364 kilogramm giyohvandlik vositalari, 88 ming dona psixotrop dorilar hamda 181 milliard so'mlik tovarlar noqonuniy kirib kelishining oldi olindi. Bu boradagi imkoniyatlarni kengaytirish uchun bojxona postlarini 3D-skaner, rentgen, videokuzatuv, server, transport tarozisi kabi zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, bu yil Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Termiz xalqaro aeroportlarida, kelgusi yildan boshqa aeroportlarda ham "bojxonachisiz nazorat" tartibini yo'lga qo'yish bo'yicha izchil ishlar

---

<sup>4</sup> <https://www.spot.uz/oz/2018/09/11/customz/>

amalga oshirilmoqda<sup>5</sup>. Mazkur davomiy o'zgarishlarning har birining mohiyatini fuqarolarga sodda va hayotiy tarzda tushuntirib berish faqat OAVlar va ularni ishonchli axborot bilan ta'minlayotgan matbuot xizmatlarining qo'lidan keladi xolos. Davlat Bojxona qo'mitasi Axborot xizmatining yutug'i esa bu borada zamonaviy PR texnologiyalaridan foydalangan holda o'z sayti va ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini sifatli yurgizayotganidir. Shuningdek, eng o'qimishli gazetalardan tortib, eng tomoshabop telekanallargacha bojxona tizimi yangilarini tez-tez yoritib borilishi, jurnalistlar va blogerlar bilan yaqindan hamkorlikni yo'lga qo'yilishi axborot xizmatini jamoatchilik bilan aloqalarini tobora mustahkamlamoqda. Ayni paytda ommaviy axborot vositalarida "raqamli bojxona" tushunchasini ommalashtirish bo'yicha PR kompaniya olib borilmoqda. "*Raqamli bojxona qanday bo'lishi kerak?*" (*xlq so'zi.uz*)<sup>6</sup>, "*Respublikadagi ilk raqamli bojxona posti qanday ishlaydi?*" (*kun.uz*)<sup>7</sup>, "*Bojxonada ayrim jarayonlar raqamlashtiriladi*" (*sputnik.uz*)<sup>8</sup>, "*Ayritom*" cheraga bojxona postida raqamli majmualar ishga tushirildi." (*yuz.uz*)<sup>9</sup>, "*Raqamli bojxona Toshkent viloyatining postlarida "yashirin iqtisodiyot"ga chek qo'ymoqda*" (*toshvil.uz*)<sup>10</sup> kabi sarlavhali maqolalar tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Taklifim, ular sonini ko'paytirib, bu tushuncha mohiyatini yanada kengroq jamoatchilikka yetkazish kerak. Chunki buni targ'ib etishga zarurat bor. Hozirgi paytda dunyodagi deyarli barcha mamlakatlarning bojxona xizmatida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida ham elektron bojxona, bojxonani raqamlashtirish va avtomatlashtirish atamalari keng qo'llanilib kelmoqda. Ushbu atamalarning bir-biridan farqi, o'zaro bog'liqlik jihatlari bo'yicha odamlarda turli fikrlar, qarashlar mavjud. Misol uchun, elektron bojxona tushunchasi qog'ozda amalga oshiriladigan jarayonlarni maksimal darajada kompyuterlashtirish hisoblanadi. Bojxona sohasidagi hujjatlar va jarayonlarning to'liq hamda mukammal holda kompyuterlashtirilishini – raqamli formatga o'tkazishni raqamlashtirish deb aytishimiz mumkin. Oddiy qilib aytganda, "raqamli bojxona" sohaga raqamli texnologiyalar - Big Data(Katta ma'lumotlar), Machine Learning(Mashinani o'rganish), Internet of Thinks(Buyumlar/narsalar interneti) va boshqa ko'plab texnologiyalarni joriy etishdir. Bojxonani raqamlashtirish bojxona sohasining ma'lum bir yo'nalishi to'g'risidagi ma'lumotlarni ularning butun faoliyat sikli davomida uzluksiz boshqarishni, shu jumladan, ma'lumotlarni avtomatik yig'ish, to'plash, o'zgartirish va tahlil qilish, bunday ma'lumotlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bojxona rasmiylashtiruvda inson omilini

---

<sup>5</sup> <https://iiv.uz/news/>

<sup>6</sup> <https://xs.uz/uz/post/>

<sup>7</sup> <https://m.kun.uz/uz/news/2021/03/27/>

<sup>8</sup> <https://oz.sputniknews-uz.com/>

<sup>9</sup> <https://yuz.uz/uz/news/>

<sup>10</sup> <https://toshvil.uz/oz/>



keskin qisqartirishga e'tibor qaratilgan ushbu loyiha amaliyotga qo'llanilganda 7 ta hududdagi (Qashqadaryo, Xorazm, Sirdaryo, Toshkent, Buxoro, Farg'ona, Jizzax) tovarlar rasmiylashtiruv masofadan o'tkazilib, byudjetga undirilgan to'lovlar 52 foizga va deklaratsiyalar soni 17 foizga ortdi. Bojxona postlarida huquqbuzarlik xavfini aniqlash tizimi takomillashtirilishi natijasida eksport tovarlarini avtomatik rasmiylashtirish 14 barobarga oshdi. Import tovarlari ko'rigida huquqbuzarliklarni aniqlash samarasi 2,1 barobarga, ushlab qolingani noqonuniy tovarlar qiymati 55 foizga ko'paydi. Respublika bojxona postlariga 7 mingdan ortiq nazorat-o'lchov moslamasi o'rnatilishi hisobiga 2-3 kungacha davom etadigan bojxona tekshiruvlari vaqtini 10-15 daqiqagacha qisqartirishga erishildi.<sup>11</sup> Xulosa o'rnida, shuni ta'kidlash kerakki, dunyo hamjamiyati bojxona xizmatlari faoliyatida zamonamizda to'rtinchi sanoat inqilobi deb ataluvchi yangi texnologiyalar (sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar, blokcheyn, narsalar internet va boshqalar) shiddat bilan amaliyotga tadbiq etib kelinmoqda. Bojxona organli faoliyatida qancha o'zgarishlar va tub islohotlar amalga oshirilmasin, ular jamoatchilikka to'g'ri yetkazilmas ekan kutilgan natijaga erishib bo'lmaydi. Zero, bu rivojlanishning bari insonlar uchun yengillik yaratish uchun qilinmoqda. Demak u insonlarga to'g'ridan-to'g'ri tushunarli bo'lishi uchun Axborot xizmati va ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyosdir.

---

<sup>11</sup> <https://e-gov.uz/news/>